

O'zbekiston
Respublikasi
Mahalla va
nuroniyarlarni
qo'llab-
quvvatlash
vazirligi

O'zbekiston
Respublikasi
Oila va xotin-
qizlar davlat
qo'mitasi



“Keksalik va hozirgi zamon: mavjud holat, rivojlanish tendensiyalari va istiqboldagi muammolar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya axborot xati.

Sizni 2022-yilning 6-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan “Keksalik va hozirgi zamon: mavjud holat, rivojlanish tendensiyalari va istiqboldagi muammolar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ishida ishtirok etishga taklif etamiz.

Tashkilotchilar: O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti, “Nuroniylar” jamg‘armasi.

Konferensiyani o‘tkazish shakli: onlayn va offlayn

Konferensiya ishi quyidagi sho‘balarda olib boradi:

- Keksa avlod va ijtimoiy siyosat.
- Keksalik va hozirgi zamon: ijtimoiy va demografik o‘zgarishlar.
- Milliy qadriyatlar va barqaror avlodlararo munosabatlar
- Keksa avlodning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi: milliy va xalqaro tajriba.

MAQOLA MATNINI TAYYORLASH BO‘YICHA TALABLAR:

Anjumanning rasmiy tili: o‘zbek, rus va ingliz tillari.

- Maqolalar A4 formatda 3-5 betdan iborat bo‘lgan holda matn Microsoft Word matn muharriri, Times New Roman shrifti, 14 o‘lcham, 1,5 interval, yuqori va pastdan 2 sm, o‘ngdan 1,5 va chapdan 3 sm qoldirilib, rasmiylashtiriladi.
- Sarlavhadan keyin muallif (lar)ning ismi, sharifi va familiyasi, ilmiy darajasi, ish joyi ko‘rsatiladi. Bir interval tashlab annotatsiya va tayanch so‘zlar uch til (o‘zbek, rus va ingliz tillarida)da keltiriladi, so‘ng 2 interval tashlab asosiy matn, xulosa, tavsiyalar hamda maqola oxirida adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi.

- **Adabiyotlar ro'yxati.** Agar matnda adabiyotga havola qilingan bo'lsa, asosiy matndan keyin markazda "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" sarlavhasi yozilishi va manbalarning raqamlangan ro'yxati joylashtirilishi kerak.
- Maqola va tezis mazmuni konferensiya mavzusi va yo'nalishlariga mos bo'lib, dolzarblikka asoslanishi, tahlil, amaliy tavsiyalar berilishi, hajmi A4 formatda 4-7 sahifadan iborat bo'lishi kerak.
- Agar matnda **jadvallar va rasmlar** mavjud bo'lsa, ular raqamlangan bo'lishi kerak ("1-Jadval" – qalin harflar bilan yozilgan).
- Yuboriladigan fayl muallifning familiyasi bilan nomlangan bo'lishi shart.
- Matnda keltirilgan fikrlar, statistik ma'lumotlar aks etgan g'oyalar, shuningdek matn orfografiyasi uchun mas'uliyat muallif zimmasida qoladi.
- Maqolalar to'plam holida chop etiladi.
- Maqolalar va ishtirokchi anketasini jo'natish uchun **elektron manzil: strategiktahlilotd@gmail.com**
- Talablarga javob bermaydigan maqolalar to'plamga kiritilmaydi.

MAQOLALARNI QABUL QILISHNING SO'NGGI MUDDATI:

2022-yil 15-sentabr

Tashkiliy qo'mita manzili:

Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Istiqlol ko'chasi, 51-uy manzilidagi binoning "b" korpusi, 2-3-qavatlar.

"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon: +99899-531-45-55, +99891-337-97-07

Telegram orqali: +99899-706-10-20, +99891-337-97-07

web-sayt: www.moiti.uz

*Ilmiy-amaliy konferensiya
tashkiliy qo'mitasi*

Ishtirokchi anketasi

Muallif(lar) familiyasi, ismi, sharifi	
Yo'nalish/sho'ba nomi	
Tezis nomi	
Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni	
Ish joyi	
Lavozimi	
Aloqa uchun telefon raqami (hudud kodi bilan)	
elektron pochta (e-mail)	